



SAMARQAND VILOYATI URGUT TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 23-dekabr

306-7-105-Q/25

Urgut tuman hokimligi

Urgut tumani hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-189-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-308-son Qarori va "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 22-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-189-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-308-son Qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi boshqaruv apparatiga:

tuman hokimligining raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo'yicha loyihalar menejeri shtat birligi hisobidan tuman hokimining raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha maslahatchi shtat birligi;

tuman hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi shtat birligi hisobidan Ma'naviyat va davlat tili bo'yicha maslahatchi shtat birligiga kiritilsin.

3. Tuman hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (V.Egamov) mazkur qarorni Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining navbatdagi sessiyasi tasdig'iga o'rnatilgan tartibda kiritsin.

5. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2025-yil 22-yanvar 34-7-105-Q/25-sonli qarorining 3-bandi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;


6. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



Sayidkulov D.B

Urgut tumani hokimligi boshqaruv apparatining tashkiliy tuzilmasi



* Tuman hokimligi tomonidan moliyalashtirilmaydi

** Tuman hokimligi mahalliy byudjetining ortirilgan qismidan (smetadan)

Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni – 26 nafar.

Har bir mahallaga birlashtirilgan hokim yordamchilari soni – 116 nafar.